

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ЧИРЧИҚ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

СПОРТ ВА ҶАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ

“TASDIQLAYMAN”

“Jismoniy madaniyat” kafedrasи mudiri
_____ F.A.Nurmatov

«____» _____ 2019 у

“ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ” КАФЕДРАСИ

“ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ НАЗАРИЯСИ ВА МЕТОДИКАСИ”

фанидан маъруза матни

МАЪРУЗА № 10

МАВЗУ: Халқ қўшинларининг ҳарбий ва жисмоний тайёргарлиги.

Тузувчи: ўқитувчи. Хабибуллаев Самандар Хабибуллаевич

ЧИРЧИҚ-2019

MA’RUZA №10

Mavzu: Xalq qo’shinlarining harbiy va jismoniy tayyorgarligi.

Reja:

1. Jismoniy madaniyat harakatining harbiy-jismoniy tayyorgarlikka yo‘naltirilishi (1941-1945)
2. Urish yillarida jismoniy tarbiya va sport
3. Urishdan keyingi davrlarda jismoniy tarbiya va sport
4. Respublika va Ittifoq Spartakiadaları

Asosiy adabiyotlar:

- 1 . Stolbov V.V., Istorya fizicheskoy kulturi i sporta., M. 2001 god.
2. Xoldorov T., Nurmatov F.A. Yunusova D.S. jismoniy tarbiya tarixi va sport harakati”-T 2013 y
3. Xo‘jaev P. Meliev P. Yunusova D.S. Jismoniy madaniyat tarixi T. Moliya 2011 y 109 – 120 betlar
4. Xo‘jaev P. Meliev Abdumalikov R. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sport tarixi.1993 y. 58 – 65 betlar.
5. Botirov X.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. T. “O‘qituvchi” 1993 y.

Ikkinci jahon urushi xalq xo‘jaligining barcha sohalari kabi jismoniy madaniyat va sport harakatini ham jangovorlik faoliyatlarga aylantirishni taqozo etdi.

Sobiq Ittifoqning barcha mintaqalaridagi kabi, O‘zbekistonda ham o‘quvchi va ishchi yoshlar o‘rtasida harbiy-jismoniy tayyorgarlik ishlariga jiddiy e’tibor berildi. Chunki urush sharpalari eshik qoqmoqda edi. bunday jarayonlarda asosan MMT (GTO) jismoniy tarbiya majmuining mazmuni va talablari davr sharoitiga moslashtirildi. Oradan uncha ko‘p vaqt o‘tmasdanoq bu majmui deyarlik to‘la harbiy tayyorgarlik mashqlari bilan to‘ldirildi.

Gitlerchi nemis bosqinchilarining 1941 yil 22 iyundagi to‘satdan urush boshlashi O‘zbekiston aholisini ham larzaga soldi. Deyarlik yaroqli yigit va katta yoshdagilar urush hamda mehnat frontiga safarbar etildi.

O‘quvchi-yoshlarga jismoniy va harbiy mashqlar o‘rgatila boshlandi. Deyarlik barcha sport jamiyatlari harbiy xizmatga o‘rinbosarlar tayyorlashga kirishdi. “Spartak” sport jamiyatida 1941 yilda 198 ta pulemyotchi, juda ko‘p chavandozlar tayyorlandi. “Dinamo” sport jamiyatida 6412 granatometchi, 242 chavandoz, 102 avtomashina va mototsiklni haydovchilarni tayyorlab chiqardi.

1942 yil Farg‘ona viloyatida 44247 granatometchi, 21266 nayzaboz jangchi 16500 pulemetchi, 2021 tank yondiruvchi, 35 avtomatchi va 65 mernan tayyorlandi. Bunday hollar Samarqand, Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlarda ham amalga oshirildi.

Ikkinci jahon urushi yillarida yoshlar va xatto katta yoshdagi kishilar orasida MMT (GTO) namoyandalarini tayyorlash eng muhim tadbirlardan biriga aylanadi. Ularning natijalari haqida quyidagi dalillar guvoh bo‘la oladi, ya’ni:

1942 yilda BGTO – 25334; GTO – I – 53312; GTO – II – 1313

1943 yilda BGTO – 29391; GTO – I – 53854; GTO – II – 1313

1944 yilda BGTO – 32339;GTO – I – 52292;GTO – II – 943

1945 yilda BGTO - GTO – I – 79741;GTO – II – 2469

Ta’kidlash lozimki, bo‘lajak jangchilarni harbiy tayyorgarlik va MMT (GTO) nishoniga tayyorlashda Vatanparvarlik, jasurlik va dushmanga ayovsiz zarba berish to‘g‘risida harbiy boshliqlar, davlat va jamoat tashkilotlari raxbarlari hamda ota-onalar doimiy ravishda murojaat qilishdi.

Ikkinci jahon urushining davom etishi, mamlakatda yosh ishchilarni tayyorlashni taqozo etdi. Bu “Mehnat rezervlari”ni tashkil qilishga qaratilgan qarorda aks ettirildi. Shu asosda mazkur nom bilan ko‘pchilli sport jamiyatasi 1943 yilda tashkil etildi. U asosan hunar-texnika bilim yurtlarini o‘z ichiga olgan edi.

Shu sababdan mamlakatimiz jagchilar urush yillarida jonlarini fido qilib, qahramonliklar ko‘rsatdi. Ular orasida N.Konov, S.Arutyao‘nyans,S.Salnikov, Yu.Evdokimov, M.Maslakov, P.Klyaus, A.Borzenko, A.Sirojev, X.Maxsimov, H.G‘ulomov, Sh.Qurbanov,J.Usmonov kabi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va msurabbiylari bor edi. Ularning ko‘pchiligi urushdan omon qaytib, o‘z faoliyatlarini yana muvaffaqiyatli davom ettirdilar.

1945 yil 12 avgustda Moskvada “Dinamo” stadionida jismoniy tarbiyachilar paradi o‘tkazildi.Unda yuzdan ortiq O‘zbekiston sportchilari ham ishtirok etadi.

Urushdan keyingi tinch qayta qurilish yillarida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport asta-sekin izga tusha boshladi. 1946-1947 o‘quv yilidan boshlab maktablar, bilim yurtlari, texnikumlar va oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslari o‘tkazila boshladi. Lekin ularning mazmunida hali ham harbiy-jismoniy mashqlar asosiy o‘rinda turar edi. Chunki, yangi dastur ishlab chiqilmagan edi.

Sport jamiyatlarida ham ishlar ancha tiklanib musobaqalar tashkil qilish, ularga yoshlarni jalb etish qizg‘in olib borildi. A.Kashaev (shtanga), S.Popov (to‘sqli yugurish) va N.Shulga (motokross) kabi championlar etishib chiqdi.

Shu davrlarda Respublika partiya va hukumati rahbarlari jismoniy tarbiya va sportga alohida e’tibor beradi. 1950- yilning martida Respublika qishloq sportchilarining “Paxtakor” ko‘ngilli sport jamiyati ta’sis etildi. Unda 1969 boshlang‘ich jamoa bo‘lib, 100 mingdan ortiq qishloq yoshlarini o‘ziga jalb etadi.

1949 yilda o‘tkazilgan jismoniy madaniyatchilar paradida Oliy o‘quv yurtlari talabalari ham ishtirok etgan. Ular orasida Orif Ikromov (hozirgi SamDU) qatnashgan edi. Keyinchalik bu kishi Samarqand, Qarshi DPI rektori, professor, filologiya fanlari doktori darajasiga etadi. U kishining eslashicha, “Paratda qatnashish minglab kishilar orzusi edi, lekin tanlovlarda saralab olinganlik uchun juda oz kishi unga tuyassar bo‘lar edi”-deydi.

Urushdan keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport jamiyatları tiklanib, ular o‘z faoliyatlarini sportning ommaviyligini amalga oshirishga safarbar qildi. Oliy o‘quv yurtlarida “Nauka” (“Fan”), o‘rta maxsus o‘quv yurtlari va mayda ishlab chiqarish korxonalarida (fabrika, savdo shaxobchalar va h.k) “Iskra” (“Alanga”), “Lokomotiv”, “Dinamo”, “Paxtakor” (1950 y) kabi Respublika va viloyatlarning sport jamiyatları faol ish olib borishdi.

1951-1956 yillarda sport jamiyatlarining birinchiliklari, tarmoq spartakiadalarini va turli xil sport musobaqalarida sport jamiyatlarining tashkilotchilik ishlari sezila boshladi.

1951 yil Samarqand, Xo‘jayli, Kosonsoy, Termiz va Angren shaharlarida jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtlari tashkil etildi. Ular boshlang‘ich va etti yillik (o‘sha davrda) maktablar uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda yangidan ish boshladi.

1952 yil Toshkent DPI tarkibidagi (1949 y) jismoniy tarbiya fakulteti mustaqil bo‘ldi. 1954 yil Farg‘ona, 1956 yil Nukus DPIda ham jismoniy tarbiya fakultetlari ochildi.

1955 yil sentyabr-oktyabr oylarida O‘zbek Davlat jismoniy tarbiya instituti tashkil etilib, iqtidorli sportchilarni talabalikka ilk bor qabul qildi.

1956 yil O‘zbekiston sport tarixida salmoqli o‘rinni egallaydi. Ya’ni shu yili yozda “Paxtakor” sport majmui qurilib bitkazildi va unda O‘zbekiston sportchilarining eng katta bayrami bo‘lib o’tdi. Bu tantana 1956 yil Sobiq SSSR xalqlarining 1 spartakiadasiga ko‘rik-sinov tajribasini o’tadi.

O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda Respublika va viloyatlardagi “Dinamo”, “Spartak”, “Paxtakor”, “Fan”, “Alanga” (iskra) va boshqa sport jamiyatlari yangi usullar bilan faoliyat ko‘rsatdi. Bunda yoshlarni sport unvonlari va darajalarini olishga bo‘lgan qiziqishlar, yangi sport kiyimlari bilan ta’minalash, belgilar (emblema) bilan sport maydonlariga chiqishga havas uyg‘otish ustuvor edi.

Ta’kidlash lozimki, jismoniy tarbiyachilar paradiga tayyorgarlik mas’uliyatlari davlat va sport jamiyatlarining ma’suliyatida turar edi. Shu sababdan unga maxsus tayyorgarlik ishlari 1-2 yil davom etar edi. Eng so‘nggi (1954 y) paradga tayyorlanish va unda qatnashish juda qiziqarli hamda muvoffaqiyatli bo‘lgan edi. Paradda 300 dan ortiq yigit va qizlar ishtirok etadi. Ular orasida Samarqanlik qiz Haqberdieva va jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtining talabalari A.Abduhakimov, D.Sharopov, N.Raximovlar ham bor edi.

Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida ulkan yutuqlarga erishildi. Sport jamiyatlarining markazlashgan rahbarlik faoliyatları (1957, 1961) usullari birmuncha markazlashtirildi va takomillashtirildi. Sport bilan shug‘ullanuvchilarning ko‘payishi, kadrlar tayyorlashning yangi yo‘llariga qo‘yilishi, sport inshootlarining qurilish ko‘lami oshishi ancha oshdi.

O‘zbekiston sportchilari Ittifoq miqyosidagi yirik musobaqalarda yaxshi natijalarga erisha boshladi. Bir qator iste’dodli sportchilar Ittifoq terma jamoalar tarkibida jahon sport musobaqalari hamda Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etib, yuksak mukofotlarga sazovor bo‘lishdi.

Opa-singil Tamara va Irina Presslar (engil atletika), V.Bondarenko (suzish), R.Sarkisovning gimnastika maktabi o‘nlab iqtidorli sportchilarga (S.Diamidov, E.Sa’dii, T.Ibrohimov, E.G‘iyosov va h.k)katta sporga chikishlariga oq yo‘l berdi. S.Babaning (suzish), R.Kazakov (kurash), S.Qurbanov (sambo), R.Risqiev (boks), A.Yudan (velosport), V.Ballad (balandlikka sakrash), R.Salimova (basketbol), V.Duyunova (voleybol), M.Ismoilov (ot sporti), S.Ro‘ziev (qilichboz) kabilar Respublika shuhrati uchun kurashdilar.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlarini yanada ommalashtirishga qaratilgan qator qarorlar (1955, 1959) (MMT) majmuini yangi pog‘onaga ko‘tarish, aholining barcha tabaqlarini ommaviy sportga jalb etish va ayniqsa madaniy-sport

majmuyi inshootlarini yangidan kurish, ularni yanada kengaytirishga qaratildi. Toshkentdag'i "Traktor", "To'qimachi", "Temir yo'lchi", "Start" (hozirgi O'zbekiston milliy banki) sport inshootlari va barcha viloyatlardagi sport inshootlari yangi talab asosida qayta ta'mirlandi.

Sovetlar mustamlakachiliga xos ravishda O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha turli komissiyalar tashkil etila boshladи. Bunda Respublika partiya tashkilotining bosh rahbari Sh.R.Rashidov ancha tashabbus ko'rsatdi. O'sha davrdagi asosiy rahbarlar sportning u yoki bu turiga mas'ul etib tayinlandi. Bu faoliyatlar viloyatlar va tuman-shaharlarda ham aynan shu maqsadda tashkil etildi. Natijada viloyatlar va cho'l zonalaridagi xo'jaliklarda o'nlab stadionlar, suv havzalari, yuzlab futbol maydonlarining qurilishi ta'minladi.

Respublika va Ittifoq Spartakiadaları.

Urushdan keyingi qayta tiklash va tinch rivojlanish davrlarida Respublikada Spartakiadalarini o'tkazish izga tushdi. Bu asosan SSSR Xalqlari Spartakiadalariga (1956,1959) tayyorgarlikning ko'rik-sinovi bo'ldi. O'quvchi-yoshlar, mehnatkash omma va qishloq mehnatkashlarining spartakiadalarini zo'r tantanalar bilan o'tkazildi.

Eng avvalo e'tirof etish lozimki, o'sha davrlarning taniqli sportchilarini va rahbar xodimlari O'zbekiston sportchilarining Sobiq SSSR xalqlari spartakiadalaridagi ishtiroki haqida maxsus qo'llanmalar yaratishgan. Ular orasida Yu.S.Sholomiskiy, R.Ismoilov va K.P.Ten kabilarning ishlari e'tiborga loyiqidir. Ularning eng asosiy tomonlarini quyida bayon etildi.

Oradan 28 yil (1928) o'tgach, 1956 yil avgustida yana Sobiq SSSR xalqlarining 1 spartakiadasi bo'lib o'tdi. Unga tayyorgarlik uchun O'zbekiston IX-spartakiadasi tashkil etilib, saralab olingan sportchilar terma jamoalar tuzildi.

Spartakiadada ba'zi sportchilar yuqori natijalarga erishdi. A.Belskiy ot sportining ikki turida 1 o'rinni egalladi. V.Ballad balandlikka sakrash bo'yicha champion unvoniga sazovor bo'ldi. Respublika sportchilarini dasturdagi barcha sport turlari bo'yicha ishtirok etib, umumjamoa hisobida II o'rinni egalladi. Basketbol-erkaklar-14, ayollar-15, boks-15, erkin kurash-12, klassik kurash-10, veloshosse-8, suv polosi-10, voleybol erkaklar-14, ayollar-15, gimnastika-8, baydarka va kanoe haydash-16, suvga sakrash-8, menganlik-9, stendga otish-16, tennis-13, og'ir atletika-7, qilichbozlik-14, futbol-11, ot sporti-4, engil atletika-9, suzish-9 o'rirlardan joy olgan edi.

II spartakiada 1959 yilda o'tkazilib, uning dasturiga 22 sport turi kiritilgan edi. Birinchi o'rinni Moskva, ikkinchi o'rinni Rossiya, uchinchi o'rinni-Leningrad egallagan. O'zbekiston esa 12-13 o'rinni egalladi. Spartakiadada R.Ablaev (67 kg) klassik kurashda birinchi, Yu.Zelenin (73 kg)-ikkinchi o'rinni egalladi. K.Vaynshteyn (boks,67kg) ikkinchi, A.Tanchiy (75 kg) to'rtinchi o'rinni egalladi. O.Ryaxovskiy (uch xaklab sakrash)-2 o'rinni, V.Ballad (balandlikka sakrash)-3 o'rinni, I.Chuvmlin (langarda sakrash)-4 o'rinni, I.Abdullaev (erkin kurash, 52 kg)-3 o'rinni egalladi. Sport turlarida: basketbol-erkaklar-15, ayollar-13, boks-8, erkin kurash-10,klassik kurash-8, velospot-6, suv polosi-8, voleybol erkaklar-15, ayollar-11, gimnastika erkaklar-7, ayollar-7, baydarka va kanoe-13, ot sporti-12, engil atletika-12, suzish-9, suvga sakrash-7-11 o'rirlar, zamonaviy besh kurash-13-17, menganlik-8, stendga otish-9, tennis-12, stol tennisi-13, og'ir atletika-8, qilichbozlik-13,

shaxmat-12 o'rinda edi.

Rustam Ismoilov hayotining 30 yildan ortiq qismini O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ishlariga bag'ishladi. Uning asosiy mehnat faoliyati ikkinchi jahon urushidan keyin boshlangan. 1946-1958 – yillarda Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasini boshqardi. O'sha yillari shu sohada juda katta ishlar amalga oshirildi.

Rustam Ismoilov jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha mutaxassislar, murabbiylar tayyorlashga jiddiy e'tibor berardi. 1955 yili uning tashabbusi bilan jismoniy tarbiya texnikumi maxsus jismoniy tarbiya institutiga aylantirildi. Qisqa vaqt mobaynida sobiq ittifoqdagi etuk turdosh institutlar qatoridan joy oldi. O'sha vaqtarda bu sohani chuqur egallagan oliy ma'lumotli xodimlar juda kam edi. Shu bois R.Ismoilov nistitutga shahar va qishloqlardan ko'proq talabalar qabul qilishni yo'lga qo'ydi. Institut qoshida sirtqi va kechki fakultetlar, murabbiylar maktabi, tayyorlov kurslari hamda bolalar-o'smirlar sport mакtablari tashkil etildi. Yuqori malakali ilmiy pedagogik mutaxassislarni tayyorlash maqsadida institutda aspirantura ochildi. Yana ko'plab yoshlarni markaziy institutlarga borib tahlil olishlariga bosh-qosh bo'ldi;

1951 yili respublikamizda qishloq ko'ngilli sport jamiyatini tuzilishida ham R.Ismoilovning hissasi katta bo'ldi. Urushdan keyingi yillarida O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarining spartakiadalarini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Unda respublikamiz sportchilarini fahrli o'rinnarni egallashdi.

Xulosa qilib aytganda 1941-1961 yil davrida O'zbekiston sporti eng katta sinovlardan o'tib, mutaxassis kadrlar tayyorlash, o'quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya va sport ishlariga yangi sharoitlar yaratish, ayniqsa sport inshootlarini kengaytirishga erishdi. Shu tufayli O'zbekiston spartakiadalarini tashkil qilish, ularga ommani jalb etishda katta qadamlar qo'yildi.

O'zbekiston sportchilarining SSSR xalqlari Spartakiadalarda ishtirok etishi va erishgan yutuqlari O'zbek sportining yangi yo'llarini kengaytirishga asos soldi.